



*Nursulw ABATBAEVA,*  
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

*DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

### SYMBOLIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “BEAUTY” THROUGH ORNITHONYMS

Annotation

This article analyzes the symbolic interpretation of the concept of “beauty” through ornithonyms based on the material of Karakalpak folk epics. The study examines the linguosemantic and linguocultural features of bird names and identifies their aesthetic and symbolic load in literary texts. Using a linguistic approach, the author reveals the role of ornithonyms in representing the concept of beauty, their national and cultural connotations, and their functional potential in the creation of artistic imagery. The results of the study demonstrate that ornithonyms serve as an important semiotic means in the formation of the concept of beauty in Karakalpak folklore.

**Keywords:** ornithonym, concept of beauty, symbolic interpretation, linguosemantics, linguocultural studies, Karakalpak folk epics, literary text, aesthetic category, symbolic meaning, bird imagery.

### СИМВОЛИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ «КРАСОТА» ЧЕРЕЗ ОРНИТОНИМЫ

Аннотация

В данной статье анализируется символическая интерпретация понятия «красота» посредством орнитонимов на материале каракалпакских народных эпических произведений. В исследовании освещаются лингвосемантические и лингвокультурологические особенности наименований птиц, а также определяется их эстетическая и символическая нагрузка в художественном тексте. Автор, опираясь на лингвистический подход, раскрывает роль орнитонимов в репрезентации концепта красоты, их национально-культурные коннотации и функциональные возможности в создании художественного образа. Результаты исследования показывают, что орнитонимы выступают важным семиотическим средством формирования концепта красоты в каракалпакском фольклоре.

**Ключевые слова:** орнитоним, концепт красоты, символическая интерпретация, лингвосемантика, лингвокультурология, каракалпакские народные эпосы, художественный текст, эстетическая категория, символическое значение, образы птиц.

### ORNITONIMLAR ORQALI “GO‘ZALLIK” TUSHUNCHASINING SIMVOLIK INTERPRETATSIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada ornitonimlar vositasida “go‘zallik” tushunchasining simvolik interpretatsiyasi qoraqalpoq xalq dostonlari materiali asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qush nomlarining lingvosemantik va lingvokulturologik xususiyatlari yoritilib, ularning badiiy matndagi estetik va ramziy yuklamasi aniqlanadi. Muallif tilshunoslik yondashuvi asosida ornitonimlarning go‘zallik konseptini ifodalashdagi o‘rni, ularning milliy-madaniy konnotatsiyalari hamda obraz yaratishdagi funksional imkoniyatlarini ochib beradi. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq folklorida go‘zallik konseptining shakllanishida ornitonimlarning muhim semiotik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** ornitonim, go‘zallik konsepti, simvolik interpretatsiya, lingvosemantika, lingvokulturologiya, qoraqalpoq xalq dostonlari, badiiy matn, estetik kategoriya, ramziy ma‘no, qush obrazlari.

Simvolik interpretatsiya – bu til birliklari orqali ifodalangan ma‘nolarning bevosita emas, balki simvolik tarzda anglanishi va talqin qilinishidir. Bunda muayyan predmet yoki obraz nafaqat o‘zining lug‘aviy ma‘nosini, balki madaniy, estetik yoki kognitiv ramziy mazmunini ham ifodalaydi. Go‘zallik konsepsiyasida ramziy interpretatsiya, asosan, qush obrazlari orqali ideal estetik tushunchalarni shakllantirishda ko‘zga tashlanadi.

Qoraqalpoq xalq dostonlarida go‘zallik konsepti ko‘p hollarda qush nomlari yordamida ham ifodalanadi. Qush nomlari tilda ornitonimlar deb yuritiladi. Ornitonimlar – ya‘ni, qush nomlari nafaqat predmetni (qushni) atash vositasi sifatida, balki inson obrazini poetik va estetik jihatdan boyituvchi metaforik vosita sifatida qo‘llaniladi.

Xalq dostonlarida ornitonimlar go‘zallik konseptini ifodalovchi muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ornitonimlar milliy-madaniy tafakkur mahsuli sifatida go‘zallikni nafaqat tashqi belgi, balki chuqur semantik va konseptual tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu

sababli ular lingvokulturologik va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida ilmiy qimmatga ega. Shuning uchun ham, ushbu maqolamizda xalq dostonlarida go‘zallikning aynan shu birliklar – ornitonimlar yordamida verballashuvini o‘rganishga harakat qildik.

Qoraqalpoq xalq dostonlarida “bulbul” ornitonimini go‘zallik konseptini anglatuvchi muhim lingvokulturologik birliklarning biri sifatida ta‘kidlab ko‘rsatish mumkin. “Go‘zallik” konsepti til birliklari orqali turli obrazlar yordamida konseptuallashtiriladi. Shunday bo‘lsa ham, dostonlarda go‘zallik konseptining verballashuvida “bulbul” ornitonimi o‘ziga xos semantik yuklama bilan ajralib turadi. Bu ornitonim boshqa qush nomlariga nisbatan ko‘proq akustik-estetik va emotsional go‘zallikni anglatishga xizmat qiladi. Bulbul obrazi ko‘pincha gul, bog‘, chaman kabi fitonimlar bilan bir semantik maydonda qo‘llanilib, natijada go‘zallik konsepti kompleks, o‘zaro bog‘langan obrazlar tizimi orqali verballashadi. Folklor materiallarida bulbul ko‘pincha insonga (yor, oshiq yoki lirik qahramon) nisbatan qo‘llanilib, metaforik

identifikatsiya vositasiga aylanadi. Fikrlarimizni misollar yordamida ko'rib chiqsak:

Bağ ishinde búlbilim,  
Sağmğanım sen gülüm (Er Ziywar)  
– Senseñ yarım bağ ishinde búlbilim,  
Hesh solmasın mñ gúlinen bir gúlin (Qurbanbek)  
Sháhári bostan búlbilim,  
Men de seniñ bir gúlin (Bozjigit)

Yuqorida keltirilgan misollarda “bog‘ ichida bulbulim”, “shahri bo‘ston bulbulim” kabi birliklarda bulbul obrazi shaxsning estetik va emotsional qadrini anglatuvchi nominativ birlik sifatida yuzaga chiqadi. Bu yerda inson – bulbul kognitiv modeli shakllanib, unda bulbulga xos belgilar inson konseptiga ko‘chiriladi.

Bulbul ornitonimi orqali ifodalanayotgan asosiy semantik komponentlarning yana biri – ovoz go‘zalligidir. Masalan,

– Kózim nuri, quwatsań belimniñ,  
Sheker qantlı búlbiliseñ tilimniñ (Er Ziywar)

Bu misolda “shakarqandli bulbulisan tilimning” komponentida bulbul ornitonimi “shakar” va “qand” kabi maza-ta‘m bildiruvchi leksemalar bilan yonma-yon qo‘llanilgan. Bulbul bevosita nutq bilan bog‘lanib, inson tilining shirinligi va yoqimliliği bilan assotsiatsiyalanadi. Bu yerda bulbul sayrog‘i metaforik tarzda inson nutqiga ko‘chiriladi va natijada nutqning estetik qiymati go‘zallik konseptining muhim tarkibiy qismi sifatida verballashadi. Demak, bulbul obrazi orqali go‘zallik nafaqat vizual, balki fonetik-akustik darajada ham konseptuallashadi.

Shuningdek, xalq dostonlarida bulbul bilan gulning barqaror semantik juftlik hosil qilishi alohida e‘tiborimizni tortdi:

Duslasıpsız biriñ búlbil, biriñ gúl,  
Sağan nesip boldı Xorezmdıy el (Er Ziywar)  
Men gúlinmen, sen búlbilim,  
Mágar kóziñe ilmediñ (Yusup Axmet)  
Sayrağan búlbilge nama qosqanım,  
Gúlshenim, shámenli bağı-bostanım (Er Ziywar)

Bu misollarda “biring bulbul, biring gul”, “men gulingman, sen bulbulim”, “sayragan bulbulga navo qo‘shganim” kabi komponentlarda bulbul bilan gul o‘rtasida o‘zaro to‘ldiruvchilik munosabati paydo bo‘ladi. Bu modelda gul – go‘zallikning vizual va statik ifodasi bo‘lsa, bulbul – unga emotsional munosabat bildiradigan, ya‘ni go‘zallikni his qiladigan va anglaydigan subyekt sifatida talqin etiladi. Natijada go‘zal obyekt (gul) – go‘zallikni anglovchi subyekt (bulbul) shaklidagi kognitiv struktura hosil bo‘ladi.

Quyidagi misolda esa “Qaysi chamanning bulbulisan”, “Men chamanning bulbuliman” konstruksiyalarida bulbul ijtimoiy-identifikatsion ma‘noga ham ega bo‘ladi:

– Ashılğan bağıdın gúliseñ,  
Qay shámenniñ búlbiliseñ,  
Qaysı baydın ulsañ (Qoblan)  
Men shámenniñ búlbilimen,  
Nurđın qara tawında,  
Qozı gúzar, qoy gúzar,  
Jilan ótken tawında (Qoblan)  
–Ashılğan bağıdın gúliseñ,  
Qay shámenniñ búlbiliseñ,  
Atıñdı ayt taz haslıñdı ayt (Qoblan)

Bu yerda shaxsning qaysi makonga (chaman, bog‘) mansubligi bulbul obrazi orqali ifodalanib, go‘zallik konsepti makoniy (lokativ) komponent bilan boyitiladi. Ya‘ni go‘zallik faqat individual xususiyat emas, balki muayyan estetik makon bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin etiladi.

Bulbulning harakat va faoliyat bilan bog‘liq qo‘llanishlari ham muhim semantik qatlamni tashkil etadi.

“Sayragan bulbulga navo qo‘shganim” satrlarida bulbul sayrashi estetik faoliyat – qo‘shiq aytish bilan parallel qo‘yiladi. Bu orqali go‘zallik jarayon sifatida, ya‘ni yaratilayotgan va ifodalanayotgan hodisa sifatida konseptuallashadi. Shunday qilib, bulbul obrazi dinamik, jo‘shqinlik va ilhom manbai semalarini ham o‘zida mujassam etadi.

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, bulbul ornitonimi qoraqalpoq dostonlarida go‘zallik konseptining o‘ziga xos – asosan emotsionallik, akustik va interaktivlik modelini shakllantiradi. Dostonlarda to‘ti dekorativ-estetik, oqqush esa nozik va ideallashtirilgan go‘zallikni anglatasa, bulbul obrazi orqali go‘zallik his qilsa bo‘ladigan, ovoz orqali ifodalanadigan estetik hodisa sifatida verballashadi. Shu sababli bulbul go‘zallikning nafaqat obyektiv belgilarini, balki unga bo‘lgan subyektiv-estetik munosabatni ham til vositasi orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Qoraqalpoq xalq dostonlarida go‘zallikni ifodalashda foydalaniladigan yana bir qush nomi – bu “to‘ti” hisoblanadi. Folklor asarlarida va badiiy adabiyotlarda bu ornitonim turli kognitiv maqsadda qo‘llanilganini ko‘ramiz. Masalan, Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida to‘ti o‘z go‘zalligiga o‘zi oshiq, moddiy, o‘tkinchi dunyoga o‘ch odam obrazida kelsa, “To‘tinoma” asarida to‘ti juda donishmand, aqlli obrazni aks ettirib keladi. Qoraqalpoq dostonlarida esa, “to‘ti” leksemasining o‘ziga xos lingvopoetik xizmati ko‘zga tashlanadi. Bu – go‘zallik konseptini verballashtirish vazifasidir.

To‘ti ishtirokidagi birliklarda go‘zallik, asosan, tashqi ko‘rinishning go‘zalligi va ko‘rkamligi bilan bog‘liq holda so‘z orqali ifodalanadi. Masalan,

Hinji tisli, qálem qashl,

Toti kózli minayım (Yusup Axmet)

Keltirilgan misolda “to‘ti ko‘zli muloyim” komponentida “to‘ti” leksemasi ko‘zning go‘zalligini, nurliligini va estetik jozibadorligini anglatuvchi semantik vosita vazifasini bajaradi. Bu yerda ornitonim inson a‘zosiga nisbatan ko‘chirilib, metaforik epitet hosil qiladi va “inson ko‘zi – to‘ti (rang-barang, jozibali)” kognitiv modeli asosida quriladi. Natijada go‘zallik konseptining vizual-estetik komponenti – ayniqsa, ko‘z jozibasini – markaziy o‘ringa chiqadi.

Bundan boshqa misollarga ham nazar tashlasak:

Aq qağazdan báki páreñ júzleri

Sol jigitti kórseñ tamasha etseñ,

Totıga megezegen eki kózleri (Máspatsha)

Bu satrlarda ham yig‘itning go‘zalligini ta‘riflash maqsadida uning ko‘zlari to‘tiqushning ko‘zlariga o‘xshatiladi.

“Toti qustay tarangan”

Aptaptay bir qánizek.

Qatorlardagi “To‘ti qushday tarangan”

konstruksiyasida esa o‘xshatish modeli orqali go‘zallikning badiiy belgisi aktuallashadi. Bu yerda “to‘ti” obrazi nafaqat tabiiy go‘zallik, balki estetik jihatdan ishlangan tashqi ko‘rinishning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, to‘ti orqali so‘z bilan ifodalangan go‘zallik modeli dekorativ-estetik xarakterga ega bo‘lib, unda rang-baranglik, nafis badiiylik va tashqi joziba semalar ustuvorlik qiladi. “To‘ti” ornitonimi orqali go‘zallikning ifodalanishiga bundan boshqa ko‘plab misollar keltiraverish mumkin:

Toti qush kibi taranıp,

Kúnde yuz mñ qıyallanıp,

Aldımda tursañ dolanıp

Bu misolda esa, “kibi” o‘xshatish yasovchi so‘z yordamida qizning harakatlari to‘tiqushning harakatlariga o‘xshatish orqali tasvirlanadi. To‘ti nozikligi, nihoyatda chiroyli harakatlari orqali estetik go‘zallik ifodalanadi.

Biriñ gáwhar, biriñ dúr...

...Biriñ toti, biriñ búlbil (Bozjigit)

Keltirilgan bu misolda esa, to'ti va bulbulning shirin so'z va yoqimli ovozi orqali qizning go'zalligini ta'riflab bergan.

Bundan tashqari, qoraqalpoq xalq dostonlarida go'zallik konseptining so'z orqali ifodalanishida juda ko'p ornitonimlar muhim semantik vosita sifatida ko'rinadi. Go'zallikni verballashtirish, ya'ni so'z orqali aniq va obrazli aks ettirish vositasi sifatida "tovus" ornitonimi ham qo'llaniladi.

Tovusga xos belgilardan – rang-barang patlari, nozik qadamlari va jozibali harakatidan foydalanish orqali doston qahramonlarining tashqi go'zalligi va qiyofasi tinglovchiga yanada ta'sirli qilib yetkaziladi. "Tovus" leksemasi lingvistik nuqtai nazardan metaforik kengayish jarayonini ko'rsatadi ya'ni qushning nomi qahramonning ko'z nuri, qaddi-qomati yoki kiyimi bilan bog'lanib go'zallik tushunchasini yanada boyitadi. Masalan:

Más tawis kibi sallanip,

Kúnde yuz muñ qiyallanip

degan satrlarda qahramonning nozik va estetik harakatlari verballashtiriladi, ya'ni shu so'z orqali go'zallik vizual va hissiy jihatdan tinglovchiga yetkaziladi.

Bundan tashqari, "tovus" leksemasi emotsional-ekspressiv baholash vositasi sifatida ham foydalaniladi. Tinglovchi yoki o'quvchi qahramonni tovusga qiyoslab, uning go'zalligi va chiroyli qiyofasini baholaydi, bu esa matnga badiiy ta'sirchanlik va milliy estetik bo'yoq beradi:

Som altunga bólenip,

Tawis kibi bezenip

Ózin jolga kózenip... (Alpamis)

Bu satrlarda ham yorning qiyofasi tovusning go'zalligiga tenglashtirilgan holda o'quvchiga yetkazib beriladi. Bunda go'zallikni verballashtirishda "kibi" o'xshatishi xizmat qilib kelgan. Odatda, qoraqalpoq dostonlarida go'zallikning eng yetuk shaklini, juda badiiy, chiroyli obrazni

yetkazib berish maqsadida "tovus" ornitonimi boshqa ornitonim, zoonim va go'zallikni anglatuvchi leksemalar bilan birga qo'llanilib, bu orqali estetik baho ekspressiv ma'no yordamida yuzaga chiqadi:

Biriñ toti, biriñ tawis,

Yarashadi, yar-yar.

Biriñ húrdir, biriñ nurdur,

Bir júziñiz yar-yar (Bozjigit)

Keltirilgan satrlarda go'zallikni ta'riflash uchun to'ti, tovus, hur, nur leksemalari ketma-ket qo'llanilgan. Shunday qilib, "tovus" leksemasi qoraqalpoq dostonlarida go'zallik konsepsiyasini verballashtirishning samarali vositasi bo'lib, nafaqat tashqi ko'rinishni, balki qahramonning emotsional-estetik bahosini, fe'l-atvorini, xatti-harakatlarini ham yetkazib beradi. U ornitonim sifatida dostonlarning obrazlilik darajasini oshiradi va milliy badiiy tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qoraqalpoq dostonlarida ornitonimlar orqali go'zallik konsepti turli semantik model asosida so'z bilan ifodalanadi: dekorativ va jozibali tashqi go'zallik modeli, shuningdek, ideallashtirilgan go'zallik modeli. Bunda har qanday holatda ham ornitonimlar metaforik va o'xshatish konstruksiyalari tarkibida ishtirok etib, go'zallikning muayyan semantik komponentlarini konseptual jihatdan strukturalashtiradi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bunday birliklar ikkilamchi nominatsiya mahsuli bo'lib, ular semantik kengayish va ko'chma ma'no asosida paydo bo'ladi. Ornitonimlar bu jarayonda nafaqat nomlash vositasi, balki madaniy-kognitiv axborotni tashuvchi birlik sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalq dostonlarida ornitonimlar yordamida go'zallikni ifodalash milliy dunyoqarash, estetik ideal va tilning obrazlilik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Ular orqali inson go'zalligi tabiat bilan uyg'unlikda tasvirlanadi va bu folklor matnining badiiy ta'sirchanligini yanada oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdinazimov, Sh., Tolibayev, X. Lingvokulturologiya. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 2020. – 144 b.
2. Абдиназимов Ш. Лингвопозитика (оқыў қолланба). – Тошкент: Ёшлар нашриёти, 2020. – 152 б.
3. Бойматова Н.К. Семантическое поле концепта «Красота» в таджикской и английской лингвокультурах: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Душанбе, 2019. – 22 с.
4. Окунева И.О. Концепт «Красота» в русском и английском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2009. – 25 с.
5. Раҳматова М.М. Гўзаллик концептининг бадий матнларда воқеланиши ва унинг концептуал таҳлили // БухДУ илмий ахбороти, 2019/2(74). – Б. 101–107.
6. Раҳматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида "Гўзаллик" концептининг лисоний хусусиятлари: Фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 20 б.
7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Санзор, 2006. – 92 б.